

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAXIMOVA NODIRA XAYATULLA QIZI

**QOVUN CHIQINDILARI ASOSIDA TOVARLAR OLISH VA ULARDAN
XALQ TABOBATIDA FOYDALANISH**

02.00.09 -Tovarlar kimyosi

14.00.41 - Xalq tabobati

**KIMYO FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abduraximova Nodira Xayatulla qizi Qovun chiqindilari asosida tovarlar olish va ulardan xalq tabobatida foydalanish.....	3
Абдурахимова Нодира Хаятулла кизи Получение товаров на основе отходов дыни и использование их в народной медицине.	21
Abduraximova Nodira Khayatulla kizi "Obtaining products based on melon waste and their use in traditional medicine."	39
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	42

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAXIMOVA NODIRA XAYATULLA QIZI

**QOVUN CHIQINDILARI ASOSIDA TOVARLAR OLIH VA ULARDAN
XALQ TABOBATIDA FOYDALANISH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K854 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

(Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.)

Ilmiy rahbarlar: **Asqarov Ibrohim Rahmonovich**
kimyo fanlari doktori, professor
Ergasheva Nargiza Obidjonovna
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Ahmadaliyev Mahammadjon**
texnika fanlari doktori, dotsent
Xolboyev Yusufjon Hakimovich
kimyo fanlari doktori, professor v.b.

Yetakchi tashkilot: **Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "19" "11" soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33 e-mail: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "11" "11" kuni tarqatildi.
(2024 yil "11" "11" dagi 42 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Sh.M.Kirgizov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

M.M.Xojimatov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda mahalliy dorivor o‘simliklar, meva va sabzavotlar, shuningdek, ularning chiqindilarini kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan, bezarar tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, turli vegetatsion davrlardagi dorivor o‘simliklarning qismlari asosida sintetik dori vositalariga yordamchi bo‘ladigan, tarkibida biologik faol birikmalar, makro- va mikroelementlar saqlagan tabiiy, zararsiz va ekologik toza oziq-ovqat qo‘shimlarini ishlab chiqish hamda xalq tabobatida qo‘llash alohida ahamiyatga ega.

Jahonda buyrak tosh kasalliklarini oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan dorivor o‘simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalardan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shimlari ishlab chiqish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, buyrak yallig‘lanishi va buyrak tosh kasalliklarini davolovchi yoki uni oldini oluvchi dorivor o‘simliklar asosida tabiiy, ekologik toza, immunitetni oshiruvchi, hamda ayrim sintetik preparatlarni o‘rnini bosuvchi biologik faol oziq-ovqat qo‘shimlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham tarkibida tabiiy birikmalar saqlagan qovun urug‘i, po‘sti va boshqa dorivor o‘simliklardan foydalanib, buyrak tosh kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimlari yaratish, ularni kimyoviy tarkibini aniqlash, hamda ularga TIF TN bo‘yicha yangi tovar kodi ishlab chiqishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda inson organizmi immunitetini oshirish bilan birga ko‘pgina kasalliklarni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish” bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tabiiy manbalar asosida tarkibida buyrak tosh kasalligini oldini oluvchi birikmalar saqlagan, organizm immunitetini ko‘taruvchi, zararsiz, tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shimlarini yaratish, shuningdek ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalarini o‘rganish hamda TIF TN bo‘yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, shuningdek, 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori hamda PF-4668-son “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

“Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi hamda 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968 - son «O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 2017 yil 7 noyabrdagi PF-5229-son “Farmasevtika tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni mazkur yo‘nalishga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. ”Kimyo, kimyo texnologiyalarining nazariy asoslari, nanatexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘simlik chiqindilari asosida ayrim kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar jahonning turli mamlakatlarida jumladan, Amerikaning Tulan universiteti, Germaniyaning Texnika universiteti va Kimyo instituti, Rossiyaning akademik A. N. Nesmeyanov nomidagi elementoorganik birikmalar kimyosi instituti, Hindistonning milliy fan ta’limi va tadqiqot instituti, Xitoy davlat asosiy muvofiqlashtiruvchi kimyo laboratoriyasi hamda Nanjing Universitetining yetuk olimlari tomonidan mazkur sohada salmoqli natijalarga erishilgan.

Qovun o‘simligi hamda uning po‘sti va urug‘ining kimyoviy tarkibi, foydali xususiyatlari ustida Shani Shastri, Jiten Patel, Eleanor D (Amerika), Weronika Sofinska-Chmiel, Aldona Nowicka (Polsha), Liang Zhong , Zhifeng Huang, Ye Zeng (Xitoy), Ankith Mannath, Rukshana Shroff (Buyuk Britaniya), Vasim Xolid, Ali Ikrom, Muhammad Rehan (Pokiston) kabi bir qator xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakatimizda, Yuldashev F.Yu., Raxmanov D.K., Rustamov D.L, Nurullaev R.B, Klepov Yu.Yu. va boshqalar tomonidan O‘zbekistonning turli hududlarida buyrak tosh kasalligining epidemiologiyasi va birlamchi profilaktikasi hamda uni kamaytirish yo‘llariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Zamonaviy tibbiyot va xalq tabobati davolash usullarining integratsiyasi yordamida bosh miya o‘smasi, tuberkulyoz, gipoteroz, endemik bo‘qoq, kamqonlik, jigar sirrozi, qandli diabet kabi og‘ir kasalliklarni davolash hamda mahalliy dorivor o‘simliklar asosida yangi oziq-ovqat qo‘shilmalar ishlab chiqish sohasida O‘zbekistonlik olimlar k.f.d., professor I.R.Asqarov, t.f.d., professor N.S.Mamasoliyev, k.f.d., professor R.Nuridinovlar rahbarligida Yu.T. Isaev, I.Yu. Mamatova, O.SH. Abdulloyev, M.M. Mo‘minjonovlar diqqatga sazovor natijalarga erishganlar.

Hozirgi kunda tarkibida qovun urug‘i va po‘sti saqlagan buyrak tosh kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqilmagan, ularning kimyoviy tarkibi aniqlanmagan va ular uchun kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo‘yicha tovar kodlari ishlab

chiqilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishi qovun po'sti va urug'i asosida buyrak tosh kasalliklarini oldini oluvchi hamda davolovchi oziq-ovqat qo'shilmalari olish, ular uchun kimyoviy tarkibi asosida tegishli yangi tovar kodlari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasaning ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universitetining "O'simliklar asosida tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish va ularni sinflash" ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qovun urug'i va po'sti asosida oziq-ovqat qo'shilmasi yaratish, ularning kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini aniqlash hamda kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi tovar kodlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovun urug'i va po'stlog'i tarkibidagi makro va mikroelementlar, vitaminlarni va flavonoidlar hamda, urug' tarkibidagi yog' miqdorini aniqlash;

qovun urug'i va po'stlog'ining antioksidantlik va antiradikallik faolligini asoslash;

qovun urug'i va po'stlog'i asosida buyrak tosh kasalliklarni oldini olishda qo'llaniladigan biologik faol oziq-ovqat qo'shilmasi yaratish;

olingan oziq-ovqat qo'shilmalarini biologik faolliklarini laboratoriya va klinik sinovlardan o'tkazish asosida shifobaxshlik xususiyatini isbotlash;

yangi olingan biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalar uchun TIF TN bo'yicha xalqaro tovar kodlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Andijon viloyatining Ulug'nor tumanida yetishtirilgan qovunning "Ko'kcha" – navi urug'i va po'stlog'i olingan.

Tadqiqotning predmeti qovun urug'i va po'stlog'i asosida biologik faol oziq-ovqat qo'shilmasini yaratish va uni kimyoviy tarkibiga ko'ra Uyg'unlashgan tizim asosida sinflash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida qovun chiqindilari hisoblangan urug'i va po'stlog'ini yig'ish va quritish, kimyoviy usullar (ekstraktsiya, tozalash), biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalar tarkibini aniqlashda YuQX, YuSSX, induktiv bog'langan plazmali emission spektrofotometriya metodlari hamda biologik va farmako-toksikologik tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor qovun urug'i va po'stlog'i tarkibidagi makro- va mikroelementlar, suvda eruvchan C, B₁, B₂, B₆, B₉ vitaminlari hamda rutin, kversetin, gall kislotasi va yog' kislotalar miqdori zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

in vitro sharoitida qovun urug'ining antiradikal faolligi 80,7 %, po'stning antioksidantlik faolligi 74,1 % ekanligi spektroskopik usulda isbotlangan;

"Ayritosh" oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi aminokislotalar, vitaminlar, makro- va mikroelementlar, fenol birikmalar miqdori zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan;

in vitro sharoitida “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasining antioksidant faolligi o‘rtacha 17,80 % ekanligini spektrofotometrik usul yordamida aniqlangan;

klirik tadqiqotlar yordamida “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shimchasining buyrak tosh kasalligi va siydik yo‘llari infeksiyasi kasalliklarini davolash xususiyati isbotlangan;

“Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qovun urug‘i, po‘stlog‘i va ayrim dorivor o‘simliklar asosida “Ayritosh” nomli tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasi ishlab chiqilgan;

qovun urug‘i, po‘stlog‘i va ayrim dorivor o‘simliklar asosida “Ayritosh” tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun tashkilot standarti, texnologik yo‘riqnoma va retsept yaratilgan;

tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun, uning kimyoviy tarkibi asosida yangi xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qovun urug‘i va po‘stlog‘i asosida olingan oziq-ovqat qo‘shilmasining kimyoviy tarkibi makro- va mikroelementlari hamda vitaminlar tarkibi YuSSX usullarida, ularning biologik faolliklarini o‘rganish natijalarining yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan tasdiqlanganligi, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarini vakolatli davlat tuzilmalari faoliyatiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, induktiv bog‘langan plazmali emission spektrofotometriya va boshqa miqdoriy analiz usullari, spektrofotometriya hamda biologik faollikni aniqlash usullari yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qovun urug‘i, po‘stlog‘i va ayrim dorivor o‘simliklar asosida “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasining ishlab chiqilganligi, uni ishlab chiqarish uchun retsept, tashkilot standarti, texnologik yo‘riqnoma yaratilganligi, hamda mazkur oziq-ovqat qo‘shilmasi uchun TIF TN bo‘yicha yangi tovar kod raqami ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. qovun urug‘i va po‘stlog‘i hamda dorivor o‘simliklari asosida buyrak tosh kasalligini davolash xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqish, kimyoviy tarkibini aniqlash va sinflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligidan ruxsatnoma olingan (№ 001397, 2022 y., O‘zbekiston Respublikasi Milliy Sertifikatlash tizimining 2021 yildagi muvofiqlik sertifikatini). Natijada, qovun urug‘i va po‘stlog‘i hamda dorivor o‘simliklar asosida tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan;

“Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasiga TIF TN bo‘yicha“qovun po‘stlog‘i, urug‘i va ayrim dorivor o‘simliklar asosida tayyorlangan, tarkibida A, B, C vitaminlari, rutin, digidrokvertsetin, senerozid, salidrozd flavonoidlari, foydali aminokislotalar, moylar va ularning yog‘ kislotalarini saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari, dori vositasi emas” uchun – 1212 30 150 3 kod raqami bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024 yil 18 oktyabrdagi №17/05-24-0001-son ma’lumotnomasi). Natijada, qovun urug‘i va po‘stlog‘i asosida ishlab chiqilgan tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalarini kimyoviy tarkibi bo‘yicha sinflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi: Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 8 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi: Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan Respublika ilmiy nashrlarida 8 ta maqola va xorijiy jurnallarda 6 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Qovun urug‘i va po‘stining kimyoviy tarkibi hamda ularning xalq tabobatidagi o‘rni (adabiyotlar tahlili)”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o‘rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan. Bu borada siydik-tosh kasalligi, uni davolashda qo‘llaniladigan dori vositalari, shuningdek, xalq tabobati mazkur kasallikni davolashda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari to‘g‘risidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, mamlakatimizda yaratilgan Tovarlar kimyosi va Xalq tabobati fanlari, oziq-ovqat qo‘shilmalarini TIF TN bo‘yicha sinflash borasidagi muammolar haqida so‘z yuritilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovun chiqindilari asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalarining fizik kimyoviy xossalari hamda ularni sinflash (olingan natijalar muhokamasi)”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda yetishtirilgan Ko‘kcha qovun po‘sti ekstraktlari va urug‘i o‘simliklari tarkibidagi makro- va mikroelementlar, suvda eruvchan vitaminlar, polifenollar, umumiy

oqsillar, uglevodlar va yog‘ miqdorini aniqlash natijalari, shuningdek, uning antioksidant faolligi o‘rganildi. Qovun po‘sti ekstraktlari va urug‘i hamda dorivor o‘simliklar asosida ishlab chiqilgan yangi “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi makro- va mikroelementlar, suvda eruvchan vitaminlar, polifenollar, umumiy oqsillar va uglevodlar miqdorini aniqlash natijalari, shuningdek, uning antioksidant faolligi, siydik-tosh kasalligini davolash xususiyatlarini aniqlash hamda TIF TN bo‘yicha sinflash borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Qovun po‘sti va urug‘ining antiradikal faolligini aniqlash natijalari.

O‘simlik ekstrakti gidroksil-, peroksi- va superoksid radikallariga nisbatan antioksidant faollik namoyon qilib, erkin radikallar hosil bo‘lishi, oksidlovchi destruksiya bilan bog‘liq kasalliklarda (o‘sma hujayralariga qarshi, qarish jarayonini sekinlashtirishda) dori vositasi sifatida foydalanish mumkin.



1-rasm. Ko‘kcha navli qovun po‘sti, urug‘i ekstraktlari va askorbin kislota optik zichliklarining vaqt mobaynida o‘zgarish diagrammasi.

Qovun urug‘ining erkin radikallarni bloklash xususiyatini aniqlashdan olingan natijalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Qovun po‘stlog‘i va urug‘ining antiradikalligini tekshirish natijalari


№	Namunalar	IC ₅₀ , mkl	50mkl namuna, T ₅₀ , sek
1.	Qovun po‘sti	25,9±1,1	398±19,0
2.	Qovun urug‘i	19,3±1,2	359±11,0
3.	Askorbin kislota	11,4±1,5	251±14,0

Qovun po‘sti va urug‘i tarkibidagi oqsillar miqdorini aniqlash natijalari.


Tadqiqotlar davomida qovun urug‘i tarkibidagi aminokislotalarning umumiy miqdori 12,0413 mg/g bo‘lib, 20 xil aminokislotaning barchasi borligi ma‘lum bo‘ldi. Bundan eng ko‘p uchraydigan aminokislotalar glutamin 1,972 mg/g, prolin 1,595 mg/g va fenilalanin 2,156 mg/g borligi aniqlandi. Shu bilan birga uning tarkibida lizin 0,031 mg/g, alanin 0,083 mg/g va serin 0,098 mg/g kam miqdorda mavjudligi o‘z tasdig‘ini topdi.

Tadqiqot obyekti bo‘lgan qovunning Ko‘kcha navi urug‘i va po‘sti tarkibida aminokislotalarning umumiy miqdori 19,2704 mg/g ekanligi aniqlandi.

Aminokislotalarning YuSSXda olingan xromatogrammalar va umumiy miqdori quyidagi rasm hamda jadvalda keltirildi.



2-rasm. Qovun po‘sti tarkibidagi aminokislotalarni YuSSXda olingan xromatogrammasi.



3-rasm. Qovun urug‘i tarkibidagi aminokislotalarni YuSSXda olingan xromatogrammasi.

2-jadval

Qovun po‘stlog‘i va urug‘i tarkibidagi erkin aminokislotalar miqdori, mg/g

Aminokislotalar nomi	Po‘stlog‘i (mg/g)	Urug‘i (mg/g)	Aminokislotalar nomi	Po‘stlog‘i (mg/g)	Urug‘i (mg/g)
Asparagin kislota	0,121	0,769	Prolin	0,066	1,595
Glutamin kislota	0,0941	0,252	Tirozin	0,546	0,504
Serin	0,214	0,098	Valin	0,137	0,604
Glitsin	0,145	0,135	Metionin	0,04	0,603
Asparagin	0,337	0,415	Izoleysin	0,099	0,196
Glutamin	0,371	1,972	Leysin	0	0,0793
Sistein	0,419	0,121	Gistidin	0,156	0,912
Treonin	0,892	0,245	Triptofan	0,125	1,023
Argenin	0,517	0,248	Fenilalanin	2,329	2,156
Alanin	0,621	0,083	Lizin	0	0,031

Qovun po‘sti va urug‘i tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdorini o‘rganish natijalari. Qovun mevasi po‘sti va urug‘i tarkibidagi 40 ta makro- va mikroelementlar miqdori induktiv bog‘langan plazmalı mass-

spektrometriya (IBP-MS) metodi bilan aniqlandi. Qovun po‘sti va urug‘i tarkibida ko‘p miqdorda aniqlangan makro- va mikroelementlar miqdori 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

IBP-MC usuli bo‘yicha aniqlangan mikro- va makroelementlar miqdori.

Element nomi	Qovun urug‘i mg/kg	Qovun po‘sti mg/kg	Element nomi	Qovun urug‘i mg/kg	Qovun po‘sti mg/kg
Litiy Li	0,392	0,075	Oltinugurt S	803,664	732,002
Bor B	9,336	4,885	Kaliy K	15252,528	8971,780
Natriy Na	585,68	322,611	Kalsiy Ca	3044,713	1549,790
Magniy Mg	1488,425	1294,542	Temir Fe	128,503	58,504
Kremniy Si	1069,272	272,594	Mis Cu	0,606	1,458
Fosfor P	629,629	3369,867	Ruh Zn	2,618	4,298

Brazilyada yetishtirilgan qovun po‘stida kalsiy 1153 mg/100 g, kaliy 884,68 mg/100 g aniqlangan. O‘zbekistonda yetishtirilgan Ko‘kcha qovun navi po‘stlog‘ining 100g da kalsiy 1549,790 mg, kaliy 8971,780 mg bo‘lib ushbu elementlar miqdorining yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Qovun po‘sti va urug‘i tarkibidagi flavonoidlar miqdorini YuSSX usulida aniqlash ko‘rsatkichlari. Qovun po‘sti tarkibida ko‘plab flavonoidlar bo‘lib, bularni hammasi insonlar organizmi uchun juda zarur moddalardir. Qovun po‘sti va urug‘i tarkibidagi gall kislotasi, rutin, kversitin, apigenin flavonoidlari miqdori tekshirildi. Olingan natijalar 4-jadvalda berilgan.

4-jadval

Qovun po‘sti va urug‘i tarkibidagi flavonoidlar miqdori

№	Flavonoidlar nomi	Flavonoid miqdori (mg/g)	
		Qovun po‘sti	Qovun urug‘i
1.	Gall kislotasi.	0,13	0,27
2.	Rutin	0,56	0,41
3.	Kversitin	0,85	0,05
4.	Apigenin	1,04	0,83
5.	Lyutionin	1,3	1,22

Rutin, kversetin va gall kislotasi esa buyrakdagi yallig‘lanishlarni, oksalatlar hosil bo‘lishini oldini olishga yordam beradi.


Qovun po‘sti va urug‘i tarkibidagi polisaxaridlar miqdorini aniqlash natijalari. 5-jadvalda ajratib olingan polisaxaridlarning miqdoriy tarkibi va monosaxaridlar tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar jamlangan.

5-jadval.


Qovun po‘stlog‘i va urug‘idagi polisaxaridlarning turli guruhlar va ularning monosaxarid tarkibi

№	Uglevodlar turi	Unum (%)	Monosaxarid tarkib					
			Gal	Glu	Ara	Man	Ksil	Rha
Po‘stloq	SEPS	7.5	21,2	42,7	26,5	5,3	3,4	1,0
	PM	2.5	4,4	21,0	44,6	3,0	1,7	1,8
	GMS	2.1	3,0	1,0	60,0	7,3	6,0	6,0
Urug‘	SEPS	7.0	1,6	21,7	56,7	2,6	5,9	1,0

	PM	2.0	5.6	18.1	40.1	3.4	5.5	2.0
	GMS	0.5	4.1	2.1	65.2	5.1	4.9	5.8



4-rasm. Qovun po'stlog'ida uchraydigan suvda eruvchan polisaxaridlarning IQ spektri




5-rasm. Qovun urug'ida uchraydigan suvda eruvchan polisaxaridlarning IQ spektri


Olingan natijalarga ko'ra, po'stloqda miqdori SEPS 7,5 %, PM - 2,5 % va GMS - 2,1 % ekanligi aniqlandi. Urug'larning tarkibini o'rganishda SEPS 7 %, PM 2 % va GMS 0,5 % ekanligi aniqlandi.

Qovun po'sti va urug'i tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori

O'zbekistonda yetishtiriladigan qovun urug'i va po'sti tarkibidagi vitaminlar miqdori YuSSX usuli yordamida aniqlandi. olingan natijalar quyidagi jadval va rasmda keltirildi.



6-rasm. Qovun po'sti tarkibidagi vitaminlar xromotogrammasi.



7-rasm. Qovun urug'i tarkibidagi vitaminlar xromotogrammasi.

Qovun urug‘i va po‘sti tarkibidagi vitaminlar miqdori

Vitaminlar nomi	Qovun urug‘i	Qovun po‘stlog‘i
	Miqdori mg/gr	
B ₁	0,644038	0,895188
B ₂	1,533264	2,962578
B ₆	0,962145	2,030757
B ₉	11,25065	0,643487
PP	0,218256	0,322706
C	3,803384	14,43997

Bizga ma'lumki, B₆ vitamini yetishmovchiligi siydikda oksalatning ko'payishi natijasida buyrak toshlarning ko'payishiga olib keladi. Kuniga B₆ vitaminidan 2,54 mg iste'mol qilish oksalat toshining shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Qovun po'sti va urug'ida B₆ vitaminining umumiy miqdori 2,992902 mg/gr bo'lib bir kunlik ehtiyojni to'la qondiradi. Bu esa buyrakda oksalat toshlarining hosil bo'lishini oldini oladi. Vitamin C moddalar almashinuvini yaxshilaydi va organizimda tuz konsentratsiyasini pasaytiradi.

Qovun urug‘i tarkibidagi moylar va ularning yog‘ kislotalari miqdori.

Qovun urug'lari 33 % dan 35 % gacha lipidlar va 35 % dan 36 % gacha oqsillarni o'z ichiga olgan istiqbolli moyli o'simlik xom ashyosidir. Olingan natijalarga ko'ra qovun urug'i tarkibida to'yinmagan yog' kislotalar miqdori to'yingan yog' kislotalarnikiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. To'yingan yog' kislotalari tarkibini neytral lipidlar 15,30 %, glikolipidlar 53,77 % va fosfolipidlari 48,03 % ni tashkil etadi. To'yinmagan yog' kislotalari tarkibini neytral lipidlar 84,70 %, glikolipidlar 46,23 % va fosfolipidlari 51,97 % ni tashkil qilishi aniqlandi. To'yinmagan yog' kislotalari asosan buyrak tosh kasalligini oldini olishda va davolangandan so'ng uni qaytalanishida muhim ro'l o'ynaydi.

“Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasini tayyorlash. O't pufagi, jigar, buyrak, taloq va boshqa a'zoldagi ortiqcha tuz va toshlarni eritib, ushbu a'zolar faoliyatini mustahkamlovchi hamda immunitetni oshirib, jinsiy quvvatni kuchaytiruvchi tabiiy vosita. Yarim yoki bir choy qoshiqdagi damlama 150 yoki 300 ml qaynoq suvda damlanib, 15-20 daqiqa quyib quyiladi va iliq holda 1 kunda 50-100 ml dan ovqatdan 10 daqiqa oldin ichiladi

“Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasining sifat va miqdor ko‘rsatkichlari.

Ayritosh oziq-ovqat qo'shilmasini namlik miqdorini aniqlash XI DF talablariga muvofiq olib borildi. Tajriba natijalari quyidagi 7-jadvalda keltirildi.

Dorivor o'simliklarning namligiga qo'yilgan talablarda namlik ko'rsatkichi 12 % deb belgilangan. Biz olib borgan tadqiqotimiz natijasida, Ayritosh oziq-ovqat qo'shilmasini 5,59 % namlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Umumiy kul miqdori o'rtacha Ayritosh oziq-ovqat qo'shilmasi 4,5 % ko'rsatkichlari aniqlandi. (DF talabi 8 % gacha;). Shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalaridagi 10 % li xlorid kislotada erimaydigan modda miqdori 1,01 % ekanligi aniqlandi. Olingan natijadan ko'rish mumkinki, tekshirilayotgan o'simlik tarkibida umumiy kul miqdori DF talablariga mos keldi.

Ayritosh oziq-ovqat qo'shilmani namligini vaqtga bog'liq holda

№	Oziq-ovqat qo'shilmasi og'irligi (gr)	Chinni tigel og'irligi (gr)	Chinni tigel va oziq-ovqat qo'shilmasi og'irligi (gr)	Qizdirilgandan keyingi massalar (gr)				Namlik %				Oziq-ovqat qo'shilmasini quritilgandan keyingi o'zgarmay qolgan namligi (%)
				Vaqt (daqiqa)				Vaqt (daqiqa)				
				30	60	90	120	30	60	90	120	
1	3,06	45,50	48,50	48,47	48,42	48,40	48,40	2,94	4,57	5,23	5,23	5,23
2	3,03	33,17	36,20	36,09	36,02	36,02	36,02	3,63	5,94	5,94	5,94	5,94
3	3,04	46,40	49,44	49,34	49,31	49,27	49,27	3,28	4,27	5,60	5,60	5,60
	3,43						o'rtacha	3,28	4,93	5,59	5,59	5,59


“Ayritosh” oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdori tahlili. “Ayritosh” oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi makro- va mikroelementlarni induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya metodi (IBP-MS) bilan aniqlandi. Aniqlangan makro- va mikroelementlarning umumiy miqdori 8-jadvalda berilgan.

“Ayritosh” oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi ayrim elementlar miqdori


№	Element nomi	100 g namunadagi miqdor, mkg
1.	Fosfor (P)	12 470 940,40
2.	Kaliy (K)	2 160 780,07
3.	Magniy (Mg)	220270,34
4.	Kalsiy (Ca)	167 134,07
5.	Natriy (Na)	58 460,45
6.	Temir (Fe)	50 459,84

Odam organizmida natriy va kaliyga bo'lgan ehtiyoj kunlik iste'molda 2:1 nisbatda bo'lishi lozim. Agar bu nisbat buzilsa to'qimalarda moddalar almashinuvi buziladi, ishtahani kamayishi, organizmda ba'zi a'zolarida shishlar hosil bo'ladi. Qancha ko'p kaliy organizmga kirsam, natriy organizmdan tashqariga chiqadi. Kaliyning organizmga yetarli miqdorda qabul qilib turilishi tomirlarda natriy tuzlarining cho'kma bo'lib to'planishini kamaytiradi va shu boisdan kaliyga boy dori vositalari foydalaniladi.

“Ayritosh” oziq-ovqat qo'shilmasi tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori. Ekstrakt tarkibidagi vitaminning YuSSX usuli bilan aniqlandi.



8-rasm. “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasi ekstrakti tarkibidagi B guruh va PP vitaminlarni aniqlash xromatogrammasi.



9-rasm. Namuna ekstrakti tarkibidagi vitamin C miqdorini aniqlash xromatogrammasi.

9-jadval.

Ekstraktidagi vitaminlarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Vitamin	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
Vitamin B ₁	2,811	0,458	1,145
Vitamin B ₃	5,769	4,067	10,168
Vitamin PP	7,675	1,665	4,163
Vitamin B ₉	16,814	8,016	20,040
Vitamin B ₂	18,915	0,822	2,055
Vitamin B ₆	5,795	1,424	3,560
Vitamin C	4,385	0,555	1,388

B₆ vitamini yetishmovchiligi siydikda oksalatning ko‘payishiga buning natijasida esa buyrak toshlarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Inson kuniga 50-400 mg B₆ vitaminidan iste‘moli magniy sitrat oksalat toshining shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Antioksidantlik faolliklari tadqiqoti. Sog‘lom ovqatlanish bilan birga qovun po‘stidan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shimlarini bemorlar iste‘mol qilishi organizmga yetarli miqdorda antioksidant bilan ta‘minlanishiga yordam beradi.


10-jadval.
Antioksidant faolliklari aniqlangan o‘simliklarni suvli ekstraktlarini vaqt davomida KFSH ni ingibirlanishi

Tekshirilayotgan ekstrakt	AF, %	
	Namuna	Vitamin C
1-minut	7,98 %	3,9 %
3-minut	13,9 %	23,9 %
5-minut	18,17 %	38,4 %
10-minut	21,33 %	50,4 %
O‘rtacha	15,34 %	29,15 %

“Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi fenol birikmalar miqdorini YuSSX usulida aniqlash natijalari “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi polifenollar miqdorini Yaponiya’ning Shimadzu kompaniyasida ishlab chiqarilgan LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografida amalga oshirildi.

11-jadval.
Ekstraktidagi polifenollarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Fenol birikma nomi	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
Gall kislota	8,247	0,204	0,510
Rutin	19,122	0,43	1,075
Salitsil kislota	22,625	8,171	20,428
Kversetin	24,189	0,077	0,193



10-rasm. Ayritosh ekstrakti tarkibidagi polifenollarni aniqlash xromatogrammasi.

Buyrak tosh kasalligini qovun o‘simligi chiqindilari asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmasi bilan davolash samaradorligi deb nomlangan 4-bobda Buyrak tosh kasalligi bilan kasallangan bemorlarni “Ayritosh” oziq-ovqat qo‘shilmasi yordamida davolashdan olingan klinik tekshiruv natijalar bayon qilingan.

Bemorlarning davolash davomida umumiy siydik tahlilida aniqlangan o'rtacha natijalar

№	Umumiy siydik tahlil ko'rsatkichlari	Umumiy siydik tahlilida aniqlangan o'rtacha natijalar	
		Davolanishdan oldin	Davolanishda 1oy o'tgandan so'ng
1.	Siydik rangi	Xira	Tiniq
2.	Hidi	o'tkir	o'tkir emas
3.	pH	7	7
4.	Zichligi	1026 g/l	1026 g/l,
5.	Oqsil	0,033,% g/l	Abs
6.	Glyukoza	abs	Abs
7.	Bilirubin	abs	Abs
8.	Leykotsit	28-30	4-5
9.	Keton tanachalar	abs	Abs
10.	Urobilinogen	5-6	Abs
11.	Eritrotsitlar	5-6	Abs
12.	Epitelial hujayralar	4-5	Abs
13.	Silindrlar	2-3	Abs
14.	Bakteriyalar	7-8	abs
15.	Zamburug'lar	abs	Abs

Bemorlarning davolash davomida qon tahlili hamda biokimyoviy tahlildagi aniqlangan o'rtacha natijalar

Qon tahlil ko'rsatkichlari	Qon tahlilidagi aniqlangan o'rtacha natijalar		Biokimyoviy tahlil ko'rsatkichlari	Biokimyoviy tahlilidagi aniqlangan o'rtacha natijalar	
	Davolanishdan oldin	Davolanishdan 1 oy o'tgandan so'ng		Davolanishdan oldin	Davolanishdan 1oy o'tgandan so'ng
Hb	72,0 g/l	78,0 g/l	umumiy oqsil	85 g/l	85 g/l
Eritrotsit	$3.2 \cdot 10^{12} /l$	$3.6 \cdot 10^{12} /l$	albumin	39 g/l	39 g/l
RK	0.8	0.8	xolestrin (umum)	6,3 mmol/l	6,3 mmol/l
Leykotsit	$7.2 \cdot 10^9 /l$	$4.4 \cdot 10^9 /l$	triglitsidlar	2,3 mmol/l	2,3 mmol/l
T/Ya	$8 \cdot 10^9 /l$	$8 \cdot 10^9 /l$	glyukoza	4,4 mol/l	4,4 mol/l
S/Ya	$61 \cdot 10^9 /l$	$61 \cdot 10^9 /l$	qondagi mochevina	14,5mol /l	14,5mol /l
Limfotsit	$23 \cdot 10^9 /l$,	$23 \cdot 10^9 /l$	kreatinin 128 mol /l	128 mol /l	42 mol /l
Monotsitlar	$5 \cdot 10^9 /l$	$5 \cdot 10^9 /l$	bilirubin: bog'langan	4,9	4,9
ECHT	18 mm/soat	7 mm/soat.	erkin	12,1	12,1
			ALT	40	40
			AST	35	35
			laktatdegidrogenaza (LDT)	325 ed/l	325 ed/l
			gammaglutamiltrans feraza (TGG)	23	23

Tadqiqot natijalaridan olingan klinik anamnestik ma'lumotlariga asoslanib, shuni aytish mumkinki, davo muolajalaridan keyin bemorlarni shikoyatlarini kamayganligi siydikdagi leykotsitlar miqdorining kamayishi, kreatin hamda mochevina miqdori kamayishi, bemorlardagi toshlarning o'lchamlari kichrayishi va mikrolitlar va mayda o'lchamdagi toshlarning siydik yo'llari orqali chiqib ketishi Ayritosh oziq-ovqat qo'shimchasini buyrak tosh kasalligi va siydik yo'llari infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda qo'llash ijobiy natijalarni berdi deb aytish mumkin.

Qovun po'stlog'i, urug'i va ayrim dorivor o'simliklar asosida, tarkibida tabiiy buyrak tosh kasalligi va buyrak yallig'lanishini davolash hamda oldini olish xususiyatiga ega birikmalar saqlagan, buyrak tosh va yallig'lanish kasalliklarini davolash va oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan "Ayritosh" nomli tabiiy oziq-ovqat qo'shimmasi tovar sifatida sinflanib, unga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: "qovun po'stlog'i, urug'i va ayrim dorivor o'simliklar asosida tayyorlangan, tarkibida A, B, C vitaminlari, rutin, digidrokvertsetin, senerozid, salidrozd flavonoidlari, foydali aminokislotalar, moylar va ularning yog' kislotalarini saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari, dori vositasi emas" uchun – 1212 30 150 3 kod raqami tavsiya etildi.

Mazkur kod raqami Tovarlarini tasniflash va kodlashning Uyg'unlashtirilgan tizimi asosida joriy etilgan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasining navbatdagi taxirini ishlab chiqish jarayoniga taklif sifatida qabul qilingan.

14-jadval

Tarkibida kversetin, gall kislotasi, lyutionin va apigenin tabiiy birikmalarni saqlovchi shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalarini TIF TN bo'yicha tavsiya qilingan kod raqami

TIF TN kodi	Pozitsiyalarni nomlanishi
121230	-- Dorivor o'simliklardan yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalari
121230100	--- boshqalar
121230150 3	-- "qovun po'stlog'i, urug'i va ayrim dorivor o'simliklar asosida tayyorlangan, tarkibida A, B, C vitaminlari, rutin, digidrokvertsetin, senerozid, salidrozd flavonoidlari, foydali aminokislotalar, moylar va ularning yog' kislotalarini saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari, dori vositasi emas"

XULOSALAR

"Qovun chiqindilari asosida tovarlar olish va ulardan xalq tabobatida foydalanish" mavzusi asosida xalq tabobati uchun olingan oziq-ovqat qo'shilmalarini biologik faolligi va shifobaxsh xususiyatlaridan amaliyotda foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Eksperimental tadqiqotlar asosida qovun chiqindilari po'stlog'i va urug'i tarkibidagi biologik faol moddalar majmui, aminokislotalar, suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlar, yog' kislotalar va hayotiy zarur makro va mikroelementlardan iboratligi isbotlandi.

2. Qovun chiqindilari po'stlog'i va urug'ining har xil nisbatdagi aralashmasini *in vitro* sharoitida antiradikal faolligini o'rganishda qovun urug'ining antiradikal faolligi 80,7 %, po'stning antioksidantlik faolligi 74,1 % ekanligi aniqlandi.

3. Qovun chiqindilari po'stlog'i va urug'ining kimyoviy tarkibini o'rganish asosida buyrak tosh va yallig'lanish kasalliklarini davolash va oldini olish maqsadida "Ayritosh" nomli tabiiy samarali, ekologik toza, yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqildi.

4. Qovun chiqindilari po'stlog'i va urug'i hamda dorivor o'simliklar asosida olingan oziq-ovqat qo'shilmalarining kimyoviy tarkibi, ya'ni aminokislotalar, vitaminlar, makro- va mikroelementlar, yog' kislotalar, fenol birikmalar miqdori aniqlash natijasida, buyrak tosh va yallig'lanish kasalliklarini davolash va oldini olishda yordam beruvchi biologik faol moddalar mavjudligini ko'rsatdi.

5. Yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarining antioksidant va antiradikal faolligi aniqlash natijasida "Ayritosh" oziq-ovqat qo'shilmasi antioksidant faolligi o'rtacha 17,80 % ekanligini isbotlandi.

6. Tadqiqot natijalaridan olingan klinik anamnestik ma'lumotlariga ko'ra davo muolajalaridan keyin bemorlarni shikoyatlarini kamayganligi siydikdagi leykotsitlar miqdorining kamayishi, kreatin hamda mochevina miqdori kamayishi, bemorlardagi toshlarning o'lchamlari kichrayishi va mikrolitlar va mayda o'lchamdagi toshlarning siydik yo'llari orqali chiqib ketishi Ayritosh oziq-ovqat qo'shimchasini buyrak tosh kasalligi va siydik yo'llari infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda qo'llash ijobiy natijalarni berdi.

7. Antibiotik va spazmalitik dori vositalari bilan birgalikda tabiiy Ayritosh oziq-ovqat qo'shilmasi foydalanib davolangan bitta bemor Fitolizin pastasi qabul qilib davolangan bemorga nisbatan 280000 so'm, sintetik dori vositalari yordamida davolangan bemorga nisbatan 59000 so'm iqtisodiy samaraga erishildi.

8. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha qovun po'stlog'i, urug'i va ayrim dorivor o'simliklar asosida tayyorlangan "Ayritosh" nomli tabiiy oziq-ovqat qo'shilmasi tovar sifatida sinflanib quyidagicha: "qovun po'stlog'i, urug'i va ayrim dorivor o'simliklar asosida tayyorlangan, tarkibida A, B, C vitaminlari, rutin, digidrokvertsetin, senerozid, salidrozyd flavonoidlari, foydali aminokislotalar, moylar va ularning yog' kislotalarini saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari, dori vositasi emas" uchun – 1212 30 150 3 xalqaro tovar kodi bojxona amaliyotida qo'llash uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
№ DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБДУРАХИМОВА НОДИРА ХАЯТУЛЛА КИЗИ

**ПОЛУЧЕНИЕ ТОВАРОВ НА ОСНОВЕ ОТХОДОВ ДЫНИ И
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИХ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ**

**02.00.09 –Химия товаров
14.00.41 – Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
доктора философии по химическим наукам**

Андижан – 2024

Тема докторской диссертации зарегистрирована под номером B2024.4.PhD/K854 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

(Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета (www.fdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (ziyonet.uz).

Научные руководители:

Аскарров Иброхим Рахмонович
доктор химических наук, профессор
Эргашева Наргиза Обиджоновна
доктор медицинских наук, доцент

Официальные оппоненты:

Ахмадалиев Махаммаджон
доктор технических наук, доцент
Холбоев Юсуфжон Хакимович
доктор химических наук, и.о. профессор

Ведущая организация:

Кокандский Государственный Педагогический институт

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета под номером DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 в Андижанском государственном университете «19» 11 2024 года. (Адрес: 170100, город Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33)

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Андижанского государственного университета (зарегистрирован под номером _____). (Адрес: 170100, город Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33, электронная почта: agsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации роздан «11» 11 2024 года.
(Отчет реестра под номером 42 от 11 «11» 2024 года.)



Ш.М.Киргизов

Председатель Научного

совета по присуждению ученых степеней, д.х.н., профессор

М.М.Муминжанов

Ученый секретарь Научного

совета по присуждению ученых степеней, д.х.н., доцент

М.М.Хожиматов

Председатель Научного семинара Научного

совета по присуждению ученых степеней

д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Определение химического состава местных лекарственных растений, фруктов и овощей, а также их отходов и разработка на их основе натуральных продуктов питания, полезных для организма человека, является одной из важнейших актуальных проблем в мире. В связи с этим разработка натуральных, безвредных и экологически чистых пищевых добавок, используемых в качестве дополнения к синтетическим препаратам, содержащих биологически активные соединения, макро- и микроэлементы, на основе частей лекарственных растений разных периодов вегетации, и их применение в народной медицине имеет особое значение.

В мире ведутся исследования по разработке пищевых добавок на основе натуральных соединений, выделенных из лекарственных растений, обладающих свойствами профилактики и лечения почечнокаменной болезни. В связи с этим особое внимание уделяется разработке биологически активных добавок к пище на основе лекарственных растений, которые лечат или предупреждают воспаление почек и мочекаменную болезнь, которые являются натуральными, экологически безопасными, повышают иммунитет и заменяют некоторые синтетические препараты. Поэтому с использованием семян дыни, кожуры и других лекарственных растений, содержащих природные соединения, создаются натуральные пищевые добавки, обладающие свойствами лечения и профилактики почечнокаменной болезни, определения их химического состава, а также особое внимание уделяется разработке нового товарного кода по ТН ВЭД.

В нашей республике разработаны и внедрены в практику натуральные пищевые добавки, обладающие свойствами профилактики и лечения многих заболеваний, повышения иммунитета организма человека. В стратегии развития нового Узбекистана определены задачи, которые важно реализовать в рамках «Реализации Программы развития пищевой промышленности». На основе этих задач создание безвредных натуральных биологически активных добавок к пище на основе природных источников, содержащих соединения, предотвращающие мочекаменную болезнь, повышающие иммунитет организма, а также изучение их химического состава, структуры и свойств, а также разработка и внедрение товарных кодов по ТН ВЭД имеет важное научное и практическое значение.

Исследование данной диссертации служит в определенной степени реализации задач, определенных в указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также № УП-4670 от 10 апреля 2020 года «О мерах охраны лекарственных растений, произрастающих в дикой природе, культурном выращивании, переработке и рациональном использовании имеющихся ресурсов» и УП-4668 «О развитии народной медицины в Республике Узбекистан», постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-251 от 20 мая 2022 года «О мерах по организации

выращивания и переработки лекарственных растений и широкому использованию их в лечении» и решение ПП-3968 от 12 октября 2018 года «О мерах по регулированию области народной медицины в Республике Узбекистан», а также ПП-5229 от 7 ноября 2017 г. в постановлении «О мерах по коренному совершенствованию системы управления фармацевтическая промышленность» и другие нормативно-правовые документы, относящиеся к данному направлению.

